

**YOSH O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATINI
TAKOMILLASHTIRISHDA MULOQOTNING AHAMIYATI****Dexqanova Mamura Ulmasovna****Jumaniyazova Maxsuda****Nurmuratova Iroda**

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik muloqot va uning vazifasi, O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot olib borish yo'llari hamda O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot olib borish qobiliyatini shakllantirish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik muloqot, o'quvchilar bilan muloqot olib borish qobiliyati, dunyoni bilish usullarini o'rganish.

**THE IMPORTANCE OF COMMUNICATION IN IMPROVING THE
PEDAGOGICAL SKILLS OF A YOUNG TEACHER**

Abstract. Pedagogical communication and its function, the teacher's ways of communicating with students, and the issues of forming the teacher's ability to communicate with students are explained in this article.

Key words: pedagogical communication, the ability to communicate with students, learning ways of knowing the world.

**ЗНАЧЕНИЕ ОБЩЕНИЯ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО
МАСТЕРСТВА МОЛОДОГО УЧИТЕЛЯ**

Аннотация. В данной статье описаны педагогическое общение и его функции, способы общения учителя с учениками, а также вопросы формирования умения учителя общаться с учениками.

Ключевые слова: педагогическое общение, умение общаться с учащимися, учебные способы познания мира.

Inson mehnat faoliyatining shakl va usullarini o'rganish uchun ham ko'p vaqt ajratadi, dunyoni bilish usullarini o'rganish uchun ham ko'p vaqt ajratadi. Biroq insonlararo muloqotga hech kim hech qayerda maxsus o'qitilmaydi. Bizda muloqot qilishning murakkab san'atiga o'qitadigan maktab hozircha yo'q. U bevosita ish jarayonida shakllanib boradi. Tasavvur qiling, siz sinfga kirib keldingiz. Pedagogik muloqotning yozilmagan ushbu qonunlarini yana bir bor eslatishga harakat kilamiz.

1. Pedagogik jarayon bizning bolalar bilan munosabatimizga asoslanadi, zotan xuddi shu munosabatlar pedagogik o'zaro ta'sirda birlamchidir, har bir «pedagogik harakat»ga takrorlanmas shaxsiylik ma'nosini beradi. O'quv materiallari yoki pedagogik talabni takrorlanmas

xissiyotlar yig'indisi bilan bezaydi. Bularsiz esa bola qalbi sirini hech qachon anglab bo'lmaydi. O'zingizning bolalar bilan munosabatingiz haqida doimo o'ylang, bu munosabatlarni maqsadga yo'naltirilgan holda tuzishga harakat qiling. Ular pedagogik jarayonga, qolaversa har bir bola shaxsiga sezilarli darajada muntazam ta'sir etib qoladi. Esda tuting, yozgan har bir konspekt, matn ortida tarbiyaviy ish rejasi zahirida sizning o'quvchilar bilan o'zaro munosabatingiz masalasi yashirinib yotadi.

2. Pedagogik muloqotni tashkil etishda faqat pedagogik maqsad va vazifalar bilan o'ralashib qolmaslik zarur. Bunday cheklanish o'qituvchining «o'z tashabbusi» bilan muloqot qilishiga olib keladi. Uning so'zlarida hukmronlik ma'nosini anglash qiyin emas. Mashhur pedagoglarimizdan ko'pchiligi shunday deydilar: «Biz kattalar, o'qituvchilar bolalarga, asosan bizga xush keladigan narsalarni qilishga majbur qilamiz, ularning ko'ngillariga qarab ish tutish esa ko'p hollarda pedagogik faoliyatimiz doirasidan tashqarida qolib ketadi». Shuning uchun bolalar bilan muloqotni yo'lga qo'yishda o'qituvchi tashabbusidan ko'ra «bola tashabbusi» asosida ish tutgan ma'qul. Shunda bola doimo bizning pedagogik faoliyatimiz doirasida bo'ladi.

Shubxa yo'qki, muloqotni o'qituvchi tashabbusi bilan tashkil qilish oson. Ammo pedagogik muloqot – bu murakkab inshoot, demak uni muayyan qonun - asosida qurmok kerak. Bu o'rinda o'quvchi tashabbusi bilan boshlangan muloqot yaxshi natija beradi, u o'quvchi shaxsini to'laroq aks ettiradi, pedagogik vazifalarni amalga oshirishda samaradorlikni ta'minlaydi.

3. Pedagogik muloqotni tashkil qilar ekanmiz, o'z nutqimizni bir bola yoki o'quvchilar guruhiga yo'naltirishga harakat qilishimiz kerak. Bunday yo'l tutish ta'lim va tarbiyaning to'g'ri usullarini tanlash kabi muximdir.

4. Shuni ham ta'kidlash zarurki, pedagogik jarayondagi muloqotni faqat bir vazifa bilan, ya'ni axborot bilan cheklash mumkin emas. Bu yo'lda muloqotning bir turidan – axborot ayirboshlash o'zaro munosabatlarni tashkil qilib, bola shaxsini o'rganish, kattalar va bolalarning bir – biriga ta'sirini hisobga olish va boshqa vositalardan foydalanish lozim. Biz pedagogik muloqotdagi mavjud yo'nalishlardan biriga bilib – bilmay amal qilmasligimiz mumkin. Biroq buning oqibati ertagayok ko'zga tashlanadi, tarbiya natijalarida uzilish yuz beradi. Shunday holning yuz bermasligi uchun o'qituvchi bola shaxsini o'rganib borishi zarur.

5. Bolalar bilan munosabatga kirishar ekanmiz, muloqotni, ya'ni yuqoridan pastga qarab tashkil qilishdan saqlanishimiz kerak. Xatto juda kichik yoshdagi bolalar ham mustaqil ekanliklarini isbotlashga harakat qilishadi. O'qituvchilik diplomi bolalar bilan munosabatda yetakchi bo'lish huquqini bermaydi. Bunday buyuk pedagog huquqini qo'lga kiritish uchun o'quvchilar jamoasida tutadigan o'rni, bu o'qituvchining rasmiy obro'yi emas, balki uning

insoniyliги bilan belgilanadi. Bolalar bilan o'zaro munosabatni shunday yo'lga qo'yish kerakki, yetakchilik mavqei tabiiy ravishda pedagogik jarayon mantiqidan kelib chiksin.

6. Sinfidagi ruhiy muhitni sezishga harakat qilishni o'rganish lozim. Chunki o'qituvchi sinfdagi ruhiy holatni bilmas ekan, o'quv – tarbiya jarayoni maxsuldor bo'lmaydi. O'qituvchi har bir shaxs ko'nglidagi sirlarni topishga yordam berishga harakat qilishi va bunday malaka va ko'nikmalarni o'zida shakllantirish lozim. Masalan: sinfda matematika darsi bo'lmoqda. O'qituvchi o'quvchilarni yangi material bilan tanishtirmoqda. Matematikaga qiziqadigan bir o'quvchi, matematikani yaxshi ko'rgani uchun ham, bu darsga quloq solib tinglab turibdi. Ikkinchi o'quvchi esa, quloq solish bilan kifoyalanib, ikki ko'zini o'sha javob beradigan o'quvchiga tikkanicha o'tiribdi. U chiroyli yoki yo'kligi haqida o'ylayapti. Xuddi shu dam matematikani uncha xushlamaydigan, ammo sportni jon – dilidan sevadigan uchinchi o'quvchi yonidagi o'quvchiga kechagi sport o'yini haqida gapirib bermoqda. Matematikaning «M» harfini ham tushunmaydigan boshqa o'quvchining ko'zi tashqaridagi qorga tushdi. Agarda o'quvchilarning shu xususiyatlarini birma – bir analiz qilsak – bir so'z bilan aytganda, darsning ruhiy vaziyatlari son – sanoqsiz. Aytaylik, bolalar bilan suxbatda kechagi kun mavzusi takrorlanishi mumkin, bunda mavzudagi arzi mas bo'lib tuyulgan o'zgarish suxbatni butunlay boshqa ma'lumotlar bilan boyitib yuboradi. Shuning uchun sinfdagi ruhiy vaziyatni nazorat qila bilish zarur:

Buning uchun:

- bolalarni kuzata bilish;
- bolalar ko'zidagi ifodani, ularning mimikasi va ko'rinishidagi o'zgarishlarni tushuna bilish zarur;
- bolalar xulqidagi o'zgarishning, kayfiyatidagi barcha o'zgarishlarga e'tibor berish;
- sinfning o'zini tutishiga nisbatan munosabatni bildirishga yumshoklik va xozirjavoblik ko'rsatish;
- sinfdagi bugungi ruhiy muxitni kechagisi bilan qiyoslab, garchi doimo o'zgarib to'rgan bo'lsada, sinflarning umumiy ruhiy holatini topish zarur.

7. Har bir o'qituvchi o'ziga bolalar ko'zi bilan qarashni o'rganishi zarur. Buning uchun:

- har bir kishi o'z faoliyatini tez – tez taxlil qilish;
- har bir o'qituvchi bevosita ish olib borayotgan o'quvchilar o'rniga qo'yishga harakat qilish;
- har bir o'qituvchi hamkasblarining darslarini ko'zatishi va o'zini ularga qiyoslashi kerak.

Xulosa qilib aytilganda, Pedagogik muloqot-O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatiga aytiladi. Pedagoglik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomola -munosabatlar katta o'rin egallaydi.

Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishga bog'liq ekan noto'g'ri tasavvurlardan bir shuki, odamni muomola yoki muloqatga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib ta'sirchan gapirishcha o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni-tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnechi "yaxshi suhbatdan - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi gapirishni biladigan esas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir" deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi. Pedagogik muloqot-O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatiga aytiladi. Pedagoglik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomola -munosabatlar katta o'rin egallaydi.

O'qituvchi hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar-yosh bolalar bilan muloqotda bo'ladi. O'qituvchining biror tasodifiy xatti-harakati natijasida o'quvchilarda u haqda sodir bo'lgan fikr ham ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir etishi, o'qituvchining ishini murakkablashtirishi mumkin. Odatda, bunday ziddiyatlar uzoq davom etadi va o'qituvchi foydasiga hal etiladi. O'qituvchi obro'sini saqlayman deb, kattalar ba'zan o'quvchining qadr-qimmatini erga uradilar, o'quvchidan kechirim surashni talab etadilar, vaholanki bu nizoga o'qituvchining noto'g'ri hatti-harakati sabab bo'lgan. O'qituvchining ishi axloqiy tarbiya talablariga to'g'ri kelmaydi. Bolalar bilan muomola va munosabatlarda ularning har biriga alohida yondashish lozim. Agar o'qituvchi va o'quvchi bir-birini tinglasa, o'z-o'zini ham tarbiyalaydi. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas. Tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar g'oyalarning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglasa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Toshkent, 1997 yil.*
2. *Milliy istiklol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, 2000 yil.*
3. *Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, «O'qituvchi», 1967 yil.*
4. *Alisher Navoiy. «Maxbub – ul – kulub», Toshkent, 1997 yil.*
5. *Azizxujaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, 2003 yil.*

Muloqot pedagogik nizolarning echish va boshqarish usullari. Muloqotdagi ziddiyat shakllari turlichadir. Masalan yuzma-yuz yoki texnik vositalar (telefon telegraf va shunga o'xshash vositalar) bilan amalga oshiriladi. Oilada nizo muloqot ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin.

O'zaro munosabatlarga kirishilganda nizoni yuzaga kelmasligini asosiy sabablari, o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo'lsa, o'zaro til topishishi bir-birini tushuna olish lozim.

Har qanday faoliyatdan zerikish, garchan mumkin, faqat odam muloqotdan ayniqsa, uning norasmiy, samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar. Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy, qiyofasi, fazilatlari, hattoki nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Har qanday muloqotlarning elemantar funksiyasi suhbatdoshlarning o'zaro bir-birini tushunishlarini ta'minlashdir. Pedagogik nizolarni oldini olishda gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tenglaydi, eshitadi.

Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishga bog'liq ekan noto'g'ri tasavvurlardan bir shuki, odamni muomola yoki muloqatga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib ta'sirchan gapirishcha o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni-tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnechi "yaxshi suhbatdan - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi gapirishni biladigan esas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir" deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi.

Pedagogik nizolarda adolatsizliklarga, ijtimoiy munosabatlardagi yakkahokimlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi.